

O. GENRINING “SO‘NGGI YAPROQ” HIKOYASIDA TABIAT TASVIRI VA INSON RUHIYATINING UYG‘UNLIGI

Feruza Karimova

Namangan davlat universiteti talabasi

karimova_f93@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada O. Genrining “So‘nggi yaproq” hikoyasida tabiat manzaralari va inson ruhiy holati o‘rtasidagi badiiy uyg‘unlikni tahlil qilish maqsad qilingan. Asarda kuz faslining ramziy ma‘nosi, so‘nggi yaproqning umid va hayot belgisi sifatidagi o‘rni, shuningdek, fidoyilik va san‘atning inson hayotidagi ahamiyati yoritiladi. Djonsi, Syu va Berman obrazlari ruhiy kechinmalar orqali ochilib, tabiat tasvirining inson ruhiyatiga ta’siri izchil tahlil qilinadi. **Kalit so‘zlar:** tabiat obrazlari, ruhiyat, umid konsepti, ramz, badiiy tasavvur, .

The Harmony Of Nature Imagery And Human Psychology In O. Henry’s Short Story “The Last Leaf”

Feruza Karimova

Student of Namangan State University

karimova_f93@mail.ru

Abstract

This article analyzes how O. Henry artistically depicts human psychological states through natural imagery in his story “The Last Leaf.” The symbolic meaning of autumn, the last leaf as a sign of fading life, and the themes of hope, faith, sacrifice, and the role of art in human existence are examined from linguopoetic and linguocultural perspectives. The psychological depth of the main characters — Johnsy, Sue, and Behrman — is revealed through their emotional experiences. The study concludes with an exploration of how natural imagery influences the characters’ inner world and highlights the philosophical essence of the work.

Keywords: nature imagery, psychology, hope, symbol, artistic depiction.

Гармония Природных образов И Человеческой Психологии В Рассказе О. Генри «Последний Лист»


Феруза Каримова

Студентка Наманганского Государственного Университета

karimova_f93@mail.ru

Аннотация

В данной статье рассматривается художественное изображение природных образов как отражение психологического состояния человека в рассказе О. Генри «Последний лист». Символическое значение осени, образ последнего листа как знака утешающей жизни, а также темы надежды, веры, самоотверженности и роли искусства в существовании человека анализируются с лингвопоэтических и лингвокультурологических позиций. Психологическая глубина персонажей — Джонси, Сью и Бермана — раскрывается через их внутренние переживания. В заключение



подчеркивается влияние природных образов на духовный мир героев и философская сущность произведения.

Ключевые слова: природные образы, психология, надежда, символ, художественное отражение.

KIRISH.

Amerikalik yozuvchi O. Genrining 1907-yilda chop etilgan “Yonayotgan chiroq va boshqa hikoyalar” to‘plamida o‘z aksini topgan “So‘nggi yaproq” hikoyasi ilk bor “Nyu-York dunyosi” gazetasida chop qilingan. Hikoya voqealari Grinvich qishlog‘ida pnevmoniya epidemiyasi avj olgan davrda sodir bo‘ladi. [1]

Romanda aks ettirilgan kuz faslining ramziy ma‘nosi shundan iboratki, daraxt bargaining so‘nggi hayot belgisi sifatida qo‘llanilganidan tashqari, asarda qahramonlarning hayotga bo‘lgan umidi, ishonchi, fidoyiligi bilan bir qatorda, san‘atning inson hayotidagi ahamiyati lingvopoyetik va lingvokulturologik nuqtai nazardan yoritilishi bilan alohida ajralib turadi. Hikoyadagi aks ettirilgan asosiy obrazlar - Djonsi, Syu va Berman qahramonlarining ruhiy kechinmalari tabiat manzaralari orqali ochib beriladi. Tadqiqot davomida tabiat obrazining ruhiy ongga ta‘siri konseptual tahlil qilinib, asarning g‘oyaviy va falsafiy mohiyati aniqlanadi.

Aslida, romanda tabiat tasviri shunchaki badiiylik voqelikni bezash vositasi emas, balki qahramonning ruhiy olamini ochib beruvchi muhim badiiy usul sifatida namoyon bo‘ladi.[6] Xususan, O. Genrining “So‘nggi yaproq” hikoyasida tabiat tasviri dramatik vaziyatni kuchaytirish, inson ruhiy tushkunligini yengish hamda umid konseptini jonlantirishda muhim semantik yukni o‘z zimmasiga oladi. [4]

Bundan tashqari, hikoya boshida kuzning sovuq, rangsiz va qo‘rqinchli tasviri Jonsining ruhiy holatini kitobxonga yetkazish uchun qo‘llanilganligini anglab yetishimiz mumkin.

Darhaqiqat, u yashashdan umidini uzgan, o‘limni kutayotgan, ruhiy jihatdan zaiflashgan ayol sifatida tasvirlanadi. Boshqacha qilib aytganda, tashqi manzara va ichki kechinmalar o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ishonchimiz komil bo‘ladi.

Shunday qilib, asarda tabiat tasvirining ramziy vazifasi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, O. Genri tabiatni oddiy fon sifatida emas, balki g‘oyaviy markaz sifatida ishlatgan deb hisoblaymiz. Masalan, kuz - so‘nish, ajralish va yakun ramzi kabi foydalanilgan.[1] Keling, fikrimizni hikoyadan olingan quyidagi parcha orqali ifodalasak, hikoyada muhim ramz bu - so‘nggi yaproq:

“Deraza tashqarisidagi qari pechakgul barglari birma-bir yerga tushib borardi. Jonsi esa so‘nggi barg tushishi bilan uning ham hayoti tugashiga ishonardi.”


Ushbu hikoyadan olingan parchada berilgan yaproq hayot ipi, umid chizig‘i va ruhiy tayanch sifatida namoyon bo‘ladi.[5]

Yuqoridagilarga qo‘shimcha qilib asarda inson ruhiyatining badiiy aks ettirilganini ham tahlil qilsak, asar qahramonlari Jonsi — **ruhiy depressiya domiga tushgan**, hayotga bo‘lgan ishonchini yo‘qotgan ayol. **Bunga qarama-qarshi tarzda**, Syu — **do‘stlik, sadoqat va g‘amxo‘rlik timsoli** sifatida gavdalanadi. **Xuddi shuningdek**, Berman esa — **san‘atga sodiq, fidoyilik timsoli bo‘lgan ijodkor** obrazidir. [4]

Bizningcha, Berman tomonidan devorga chizilgan so‘nggi yaproq — bu oddiy surat emas, **hayotga qaytishning, umidning va insoniy irodaning ramzidir**. U Jonsining qalbida so‘nib borayotgan ishonch uchqunini yana alangalatgan **ruhiy signal** sifatida namoyon bo‘ladi.

Darhaqiqat, inson qalbi murakkab va sirli. U, go‘yo, olis bir sayohatga otlanayotganday, atrofdagi barcha narsaga befarq bo‘lib qoladi. **Xususan**, Jonsini hayot va do‘stlikka bog‘lab turgan rishtalar birma-bir uzilar, u esa o‘z xayolining sovuq ta‘siriga tobora berilib ketayotgandek edi.

Biroq, yana bir kun o‘tdi. G‘ira-shira qorong‘ulikda hamon novdada osilib turgan o‘sha yolg‘iz yaproq uning nigohida porlab turardi. **Shu payt**, shimoldan esayotgan shamol yanada



kuchayib, yomg'ir ham derazani tinmay taqillatardi; golland tarnovlaridan suv shovqin bilan pastga oqardi. **Ammo**, tong otganda, bag'ritosh Jonsi yana pardani ko'tarishni buyurdi — va hayrat bilan ko'rdi: **pechak bargi hali ham o'z joyida edi**.

Hikoyaning yana bir muhim elementlaridan bu san'at va fidoyilik motivi hisoblanadi. Romandagi Berman — **fidoyilik va san'atga sadoqat timsoli**. U sovuq tun, shamol va tinimsiz yog'ayotgan yomg'irda devorga yaproq chizadi. **Go'yo**, bu ish orqali u o'z hayotini qurbon qilib, boshqalarga hayot baxsh etadi. **Demak**, bu yerda san'at — oddiy ijod emas, **terapevtik, hayotni qaytaruvchi, ruhni davolovchi kuch** sifatida namoyon bo'ladi.[3]

Eslatib o'tish joizki, Berman hayotining so'nggi orzusi Neapolitan ko'rfazining rang-barang suratini chizish edi. U bu niyatini bajarishga ulgurmagan bo'lsa-da, **asl san'at asarini** — devordagi so'nggi yaproqni yaratdi. **Aynan shu rasm** inson qalbida umid uchqunini qayta yoqqan mo'jizaviy ijod namunasi bo'ldi. [6]

Oradan biroz vaqt o'tib, tushlikdan keyin shifokor keldi. U ketar chog'ida Syu bir bahona bilan uning orqasidan dahlizga chiqdi. — *Imkoniyatlar barobar*, — dedi shifokor Syuning titrayotgan qo'llarini siqib. — *Yaxshi qarov bilan kasallikni albatta yengasizlar. Hozir esa men pastki qavatdagi bemorni ko'rishim kerak. Uning ismi Berman. Menimcha, rassom bo'lsa kerak. U ham zotiljamga chalinibdi...*

Shu tarzda, o'quvchi kutilmagan burilish orqali haqiqatni bilib oladi: Jonsining yashash umidini saqlab qolgan so'nggi yaproq aslida Bermanning hayoti evaziga yaratilgan edi. **Ertasi kuni**, shifokor yana qaytadi va shunday deydi: — *Uning hayoti xavf ostida emas. Sizlar yengdingizlar. Unga yaxshi ovqat berib, g'amxo'rlik qilsangiz, tez orada oyoqqa turib ketadi.*[1]

Ammo, shu paytda Berman hayot bilan vidolashgan edi. **Natijada**, hikoyaning kulminatsion nuqtasi eng kuchli emosional ta'sirni uyg'otadi: bir insonning o'limi boshqa bir insonning hayotini saqlab qoladi.

XULOSA.


Hikoya bo'yicha tahlilimizni yakunlar ekanmiz, aytish mumkinki, yozuvchi o'z asarida umid va ishonch hayotimizda qanchalik muhim motiv ekanligini bir nechta o'xshash detallar: xasta ayol obrazi, qahramonlar xarakterini fasllar orqali, nomni esa qahramonlarga mos holda tanlash orqali ko'rsatib berilgan. Shunga qaramasdan, yozuvchining hayotga yondashuvi o'z qahramonini irodasiz va ojiz tasvirlashi ko'zga tashlanadi.

Shuningdek, yozuvchilar toni ham turlicha: Genri hikoyasi g'amgin, umidsizlikka tushgan zaif qizning o'limini oddiy pechak guli bilan bog'lashi va shu tariqa bebaho yozuvchilik mahorati uning asarlarining hozirgacha o'z o'quvchilariga ega ekanligining asosiy sababidir. "So'nggi yaproq"da tabiat tasviri va inson ruhiyati o'zaro uyg'un holda tasvirlangan.

Yaproq — hayotning eng so'nggi ipi, lekin eng buyuk umid manbai. Hikoya o'quvchini inson ruhiyatining nozik qatlamlarini anglashga undaydi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. **O. Genri.** *Yonayotgan chiroq va boshqa hikoyalar*. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
2. **O. Genri.** *The Last Leaf and Other Stories*. — New York: The World Publishing Company, 1907.
3. **G'aniyeva, S.** *Adabiyot nazariyasi asoslari*. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
4. **Yo'ldoshev, M.** *Badiiy matn tahlili va interpretatsiyasi*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
5. **Shomusarov, A.** *Adabiyotshunoslikka kirish*. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2017.



-
6. **Abramovich, S.** *Narratologiya va badiiy matn poetikasi.* — Moskva: Akademiya nashriyoti, 2010.